

**“Asaka” Bank (OAJ)da “Internet-Bank”
dasturiy kompleksi orqali
xisob-kitob qilish to‘g‘risidagi
NIZOMga
1-Illova**

**“Internet-Bank”dasturiy kompleks
orqali bank xisob raqamiga xizmat korsatish boyicha
SHARTNOMA**

Toshkent sh. 201_ y. “___” _____ filiali,
“Asaka” Bank (OAJ) _____ filiali,
keyingi o‘rinlarda “Bank”, nomidan _____ 201_ yil ___ _____
dagi Ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi Boshqaruvchi _____ bir
tomondan va _____

“Mijoz” deb yuritiluvchi ikkinchi tomondan, quyidagi Shartnomani ushbu xaqda tuzdilar:

1. Kirish

“Internet-Bank” Dasturiy kompleksi (“Internet-Bank” DK) orqali Mijozlarga xizmat ko‘rsatish uchun tuzilgan mazkur Shartnoma “Internet-Bank” DKi yordamida bank xizmati ko‘rsatish tartibini aniqlaydi xamda Bankda ochilgan xisob raqamiga masofadan turib xizmat ko‘rsatish tartibini belgilaydi.

“Internet-Bank” DKiga kirish login, parol va avtorlashtirish (karta yoki SMS xabar orqali) amalga oshiriladi.

Shartnomada quyidagi terminlar ishlatiladi:

“Internet-Bank” DKi – Internet orqali masofadan turib xizmat ko‘rsatuvchi tizimlardan biri;

Mijoz –yakka tartibdagi tadbirkor maqomiga ega bo‘lmagan, rezident yoki norezident, Bankda xisob raqamiga ega jismoniy shaxs. Mazkur Shartnoma tasnifida Mijoz sifatida o‘rnatilgan tartibda tuzilgan Shartnoma asosida xisob raqamini boshqaruvchi Ishongan shaxs xam tushuniladi.

- Login – Bank tomonidan yuzaga keltiriladigan, “Internet-Bank” DTga ro‘yxatga qo‘yiladigan vaqtda Mijozga beriladigan noyob raqamli-xarfli belgilar ketma-ketligi;

- Parol – Bank tomonidan belgilanadigan, Mijoz tomonidan o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lgan, ro‘yxatga olish vaqtida tizimga kiritiladigan belgilar ketma-ketligi. Parol Mijoz ro‘yxatga olinayotgan vaqtda Bank filiali mas‘ul xodimi tomonidan maxsus dasturiy vosita yordamida shakllantiriladi.

- Talab qilib olinuvchi maxsus depozit xisob raqami – keyingit o‘rinlarada xisob raqami.

1. Shartnoma predmeti

1.1 Bank tomonidan Mijozga 20___ y. “___” _____ da ochilgan 20206000xxxxxxxxx555 xisob raqamidan “Internet-Bank” DK orqali to‘lovlar o‘tkazish xizmatini ko‘rsatadi. “Internet-Bank” DK quyidagilarni ta‘minlaydi:

- ko‘rsatilgan xizmatga xaq to‘lash uchun elektron to‘lov topshirig‘ini kiritish;
- kiritilgan elektron to‘lov topshirig‘ini Internet orqali Bankka uzatish;
- Bankda ochilgan Xisob raqamining xolatini nazorat qilish.

- 1.2 Bank Mijozga Internet-manzil, login va parol taqdim etish orqali xizmat ko'rsatadi.
- 1.3 Bank va Mijoz "Internet-Bank" DKda foydalaniladigan xisob-kitob xujjatlarini uzatish usulini tan oladilar.
- 1.4 O'zaro xisob-kitob O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'mda olib boriladi.
- 1.5 Mijoz elektron to'lov topshiriqlarini O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga uzatishda Bankka ishonadi.
- 1.6 "Internet-Bank"dan foydalanganlik uchun Mijoz Bankda o'rnatilgan tarif bo'yicha xaq to'laydi.
- 1.7 Mini-ko'chirma olish uchun Mijoz Xisob raqamini tanlashi va "Mini ko'chirmani ko'rsatish" tugmasini bosishi kerak. Natijada ekranda tanlangan Xisob raqami bo'yicha oxirgi 30 kunda amalga oshirilgan 25 ta amaliyot aks ettirilgan shakl ko'rsatiladi.
- 1.8 Mijozga joriy kunda Xisob raqamida amalga oshirilgan mablag'lar xarakati to'g'risida xamda ilgari amalga oshirilgan to'lovlar xaqida ma'lumot taqdim etiladi. Mazkur ma'lumotni Mijoz ko'rish va bosmadan chiqarishi mumkin.

2. Bank majburiyatlari

2.1 Mijozda zaruriy texnika va dasturiy ta'minot bo'lganda, ushbu Shartnoma imzolanganidan so'ng, Bank bir bank kunida Mijoz oldida quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- "Internet-Bank" DKda ishlash uchun zarur bo'ladigan Internet –manzil taqdim etish;
- "Internet-Bank" DKga birlamchi kirish uchun login, parol berish;
- "Internet-Bank" DKda ishlash Yo'riqnomasini berish;
- kirish kartasini berish (avtorizatsiya usuli sifatida kirish kartasi tanlangan xolda).

2.2 Mijozdan elektron to'lovlar kechayu-kunduz qabul qilinadi. Qator amaliyotlar Bank tomonidan on-line rejimida bajariladi va ularni Mijoz kechayu-kunduz o'tqazishi mumkin.

2.3 Xisob raqamiga kirish uchun ruxsat etilmagan urinishlar yuzaga kelganda, Bank uning sabablarini aniqlaguncha Xisob raqamiga kirishga taqiq qo'yadi. Kirishni qayta tiklash faqatgina Mijoz bilan kelishilgan xolda bajariladi.

2.4 Login, parollarni uchinchi shaxsga berish, elektron to'lov xujjatlarini noto'g'ri tuzish oqibatida yuzaga kelgan zarar uchun Bank mas'uliyatni o'z zimmasiga olmaydi.

2.5 Mijozning xisob raqamida mablag' bo'lmagan yoki yetarli bo'lmagan xolda, agar Shartnomada boshqa xolat ko'zda tutilmagan bo'lsa, Mijoz tomonidan "Internet-Bank" DKi orqali yuborilgan elektron to'lov xujjati ijro uchun qabul qilinmaydi va bu xaqda Mijozga xabar beriladi.

3. Mijozning majburiyatlari

3.1 "Internet-Bank" DKida ishlash uchun Mijoz o'zining texnik vositalaridan foydalanadi.

3.2 O'rnatilgan kommunikatsion vositalarni yoki foydalanilayotgan aloqa tizimlarini, zaruriyat bo'lgan xolda, ro'yxatdan o'tqazish Mijozga yuklatiladi.

3.3 Mijoz xamma xavfsizlik va axborotlarni texnik ximoya qilish qoidalariga rioya qilish majburiyatini oladi xamda "Internet-Bank" DKida ishni shunday tashkil qiladiki, ruxsati bo'lmagan boshqa shaxslarining tizimda ishlash imkoniyati vujudga kelmaydi.

3.4 Tizimga birinchi marta kirganda Mijoz parolni o'zining shaxsiy paroliga o'zgartirishi zarur. Parolni blokirovkaga olib keluvchi noto'g'ri urinishlar soni -3 ta. Blokirovkaga tushgan parolni qayta tiklash Mijozning bevosita oldida, shaxsini tasdiqlovchi xujjat asosida amalga oshiriladi.

3.5 Tizimga kirish va o'z xisob raqami bilan ishlash uchun Mijoz avtorizatsiya usulini (karta yoki SMS xabar orqali) tanlashi zarur.

3.6 Tizimga ruxsat etilmagan kirishga urinishlar yuz berganda, kirish kartasi yo'qotilganda Mijoz tizimga kirishni yopish uchun tezlik bilan bu xaqda Bankka xabar berishi zarur. Tizimning ishlashini qayta tiklash, yangi karta berish Mijoz bilan kelishilgandan so'ng amalga oshiriladi.

- 3.7 Elektron to'lov xujjatini to'ldirishda Mijoz O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan barcha ma'lumotlarni kiritishga majbur.
- 3.8 O'tkazilayotgan amaliyotlar, rekvizitlar to'g'riligi, to'lov maqsadi, elektron xujjatlarni aloqa kanali orqali Bankka jo'natish uchun Mijoz shaxsan mas'uldir.
- 3.9 Mijoz to'lov topshiriqnomasini elektron ko'rinishda rasmiylashtirish uchun (mas'uldir.
- 3.10 To'lovni amalga oshirish uchun Mijoz O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2002 yil 15 aprelda 1122-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasida naqdsiz xisob-kitoblar to'g'risida"gi Nizomga muvofiq kiritish shaklni to'ldiradi.
- 3.11 Mijoz to'lovlarni o'z Xisobidagi qoldiq chegarasida amalga oshirishi mumkin.

4. Tomonlar majburiyatlari

- 4.1 O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'rsatilgan xolatlardan tashqari xollarda elektron to'lov tizimi texnologiyasi bo'yicha ma'lumotlarni sir saqlash.
- 4.2 Tizim xavfsizligi buzilishi xolatlari yoki belgilari namoyon bo'lgan xollarda, darhol tizim orqali to'lovlar o'tkazishni to'xtatish va choralar ko'rish uchun ikkinchi tomonni bu xaqda ogoh qilish.
- 4.3 Axborotlarni texnik ximoyalash va texnika xavfsizlik qoidalariga amal qilish. Tizimni ruxsati bo'lmagan boshqa shaxslar tomonidan ishlati imkoniyatini bartaraf qilish.
- 4.4 O'zining login va parollarini begona shaxslarga oshkor qilmaslik.

5. Tomonlar mas'uliyati

- 5.1 Mazkur Shartnomada keltirilgan majburiyatlarni buzganlik uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgardirlar.
- 5.2 O'tkazilayotgan amaliyotlarning qonuniyligi, elektron to'lov xujjatlarining to'g'riligi xamda aloqa kanali orqali Bankka uzatilishiga Mijoz javobgardir.
- 5.3 Qog'ozda tayyorlangan axborot elektron xujjatga aylantiriladi. Elektron xujjatlarinig asliga mosligi xujjat tayyorlagan tomonga to'liq yuklatiladi.
- 5.4 Mazkur Shartnomaning 3-bo'limida yoritilgan majburiyatlarga amal qilmagan xolda, Mijoz Bank oldida xam, uchinchi shaxs oldida xam qonuniyatga muvofiq javobgardir.
- 5.5 Mijoz xisob raqamidan mablag'larni elektron to'lov xujjatiga asosan to'g'ri yechish, mablag'larni xisob raqamga to'g'ri kiritish uchun Bank javobgardir.

6. Fors-major

- 6.1 Fors-major xamda Tomonlarga bog'liq bo'lmagan boshqa xolatlarda, Tomonlar elektron xujjatlar ayrboshlashni shu xolat davrida to'xtatib turadilar va iloji boricha qisqa vaqt ichida boshqa tomonni ushbu xolat yuzasidan xabardor qiladilar.
- 6.2 Bank oldini olib bo'lmaydigan quyidagi xolatlar natijasida tizimdan foydalanishni to'xtatgani uchun javobgarlikni olmaydi:
- suv toshqini, yong'in, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar, embargo, xarbiy xarakatlar, elektr energiyani o'chirish, aloqa kanalini uzilishi, jamiyatdagi xolatlar, Bank uchun bajarilishi majburiy bo'lgan markaziy xukumat va joylardagi xokimiyat qarorlari.

7. Nizolarni xal qilish tartibi

Mazkur Shartnomani bajarish yuzasidan Tomonlar orasida yuzaga keladigan nizolarni Tomonlar muzokara yo'li bilan xal qilish majburiyatini oladilar. Nizolarni xal qilish davrida Bank bir tomonlama Shartnomani to'xtatib turishga xaqli. Bu xaqda Bank Mijozga xabar beradi.

Nizolar faqatgina elektron to'lov xujjatlari yuzasidan faqatgina aloqa kanali orqali qay ko'rinishda kelgan bo'lsa, shu ko'rinishda ko'riladi.

Nizo yuzasidan yechimga kelmagan xolda, qonuniyatda oʻrnatilgan tartibda xal etiladi.

8. Shartnomaning amal qilish muddati va bekor qilish tartibi

Mazkur Shartnoma imzolangandan soʻng kuchga kiradi va nomuayyan muddatga tuzilgan deb xisoblanadi.

8.2 Xar qaysi Tomon bir tomonlama Shartnomani bekor qilish xuquqiga ega boʻlib, bu xaqda u ikkinchi Tomonni bir oydan kam boʻlmagan vaqt oldin ogoxlantirishi zarur.

8.3 Shartnoma bekor qilingan xolda, Tomonlar ushbu Shartnomadan va boshqa Qoʻshimcha Shartnomalardan kelib chiqadigan oʻz oldidagi majburiyatlarini bajarishlari shart. Ushbu xolda Bank Mijoz uchun tizimning kirish qismini yopib qoʻyadi.

8.4 Mijoz tomonidan Shartnoma bekor qilinganda, pul mablagʻlari xisob raqamiga qaysi koʻrinishda qoʻyilgan boʻlsa, Mijozga shu koʻrinishda qaytariladi.

8. Boshqa shartlar

9.1 Oʻrnatilgan “Internet-Bank” DKga oʻzgarishlar yoki qoʻshimchalar kiritilgan taqdirda, mazkur Shartnomaga Tomonlar roziligi bilan Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida koʻzda tutilgan tartibda oʻzgartirish yoki ilova bilan toʻldirilishi mumkin.

9.2 Mazkur Shartnomada yoritilmagan shartlar, Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi meʼyorlariga muvofiq tartibga solinadi.

9.3 Mazkur Shartnoma ikki nusxada tuzilgan boʻlib, xar ikkalasi xam bir xil yuridik kuchga ega.

10. Tomonlarning yuridik manzillari, bank revizitlari va imzolari

Bank:

(m.oʻ.)

Mijoz:

Pasport

belgilari: _____

Mazkur meʼyoriy xujjat Axborot texnologiyalari departamenti (tomonidan rus tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilindi.